

E'TIQOD VA AQL O'RTASIDAGI MUNOSABATLAR MUAMMOSI: IBN RUSHD, AL-AFG'ONIY, MURTAZO MUTAHHARIY

Iroda Rixsivayevna Ikramova
PhD, katta o'qituvchi Toshkent davlat
Sharqshunoslik universiteti
E-mail: irodasadoyi@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada insoniyat tarixida doimo muammoli masala bo'lgan din va falsafa, e'tiqod va aql, imon va bilim munosabatlari borasidagi sharqning ayrim faylasuflari fikrlarini tahlil qilingan. Bunda Ibn Rushd, Al-Afg'oni, Murtazo Mutahhariy qarashlariga tayanilgan. Maqolada, shuningdek, faylasuflarning mazkur muammoda bu ikki sohani qarama-qarshi emas, balki o'zaro bog'liqlikda ko'rganliklari tadqiq qilingan.

Kalit so'zlar: Ibn Rushd, Al-Afg'oni, Murtazo Mutahhariy, din, falsafa, e'tiqod, bilim, imon, aql.

THE PROBLEM OF THE RELATIONSHIP BETWEEN FAITH AND INTELLIGENCE: IBN RUSHD, AL-AFGHANI, MURTAZA MUTAHARI

Iroda Rikhsivayevna Ikramova
PhD, senior teacher
Tashkent State University of Oriental Studies
E-mail: irodasadoyi@gmail.com

Annotation: This article analyzes the opinions of some Eastern philosophers regarding the relationship between religion and philosophy, belief and reason, faith and knowledge, which is always a problematic issue in human history. In this, the views of Ibn Rushd, Al-Afghani, and Murtaza Mutahhari were relied upon. The article also examines the fact that philosophers see these two areas in this problem, not in opposition, but in interdependence.

Keywords: Ibn Rushd, Al-Afghani, Murtaza Mutahhari, religion, philosophy, belief, knowledge, faith, mind.

ПРОБЛЕМА СООТНОШЕНИЯ ВЕРЫ И РАЗУМА: ИБН РУШД, АЛЬ-АФГАНИ, МУРТАЗА МУТАХАРИ

Ирода Рихшибаевна Икрамова

Доктор наук по философии, старший преподаватель
Ташкентский государственный университет востоковедения
E-mail: irodasadoyi@gmail.com

***Аннотация:** В данной статье анализируются мнения некоторых восточных философов относительно соотношения религии и философии, веры и разума, веры и знания, что всегда является проблемным вопросом в истории человечества. При этом опирались на взгляды Ибн Рушда, Аль-Афгани, Муртазы Мутаххари. В статье также рассматривается тот факт, что философы видят эти два направления в данной проблеме не в противостоянии, а во взаимозависимости.*

***Ключевые слова:** Ибн Рушд, Аль-Афгани, Муртаза Мутаххари, религия, философия, вера, знание, разум.*

KIRISH.

Insonning mohiyati haqida fikr bildirish borliq va shaxs oʻrtasidagi munosabat masalasini tabiiy ravishda keltirib chiqaradi. Bunda inson borligʻiga ekzistentsial yondashuv muxim sanaladi. “Ikki haqiqat” taʼlimoti nafaqat bugungi kundagi ijtimoiy, madaniy, siyosiy toʻqnashuvlarning oddini olishda dolzarb sanaladi. U oʻtmishdan zamonaviy dunyoga koʻchishi davomida turli xil qarashlar, turli xil tendentsiyalarni, turli xil yondashuvlarni koʻrib oʻtdi. Sababi, din yoki eʼtiqod va falsafa yoki aql, bilim masalasi nafaqat bugungi globallashuv jarayonlarida, balki tarixan oʻzining dolzarbligi, nozik masala ekanligi bilan ajralib turgan. U inson ichki dunyosi, ishonchi bilan aql-zakovati natijalarini oʻzida mujassam etgan boʻlib, bunda har bir shaxsning oʻz pozitsiyasi mavjud boʻladi.

USLUBLAR.

Aql va din haqida, eʼtiqod va bilim aloqadorligi borasidagi qarashlar Sharq va Gʻarb olimlari tadqiqotlari natijasida keng oʻrganilgan. Mazkur maqolada eʼtiqod

va aql mutanosibligining bugungi kundagi ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot olib borish mobaynida dialektik, tizimlashtirish, germeneytik va sinergetik metodlardan hamda toʻldiruvchanlik, verifikatsiya, tarixiylik, vorisiylik tamoyillaridan ham foydalanilgan.

NATIJALAR.

Bugungi globallashuv sharoitida bir tomondan siyosiy yetuk yoshlarni tarbiyalash, ikkinchi tomondan esa ular ongi shuurida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni saqlab qolish, yaʼni aqlli, ruhan va maʼnan sogʻlom, ijtimoiy faol avlodni kamol toptirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli mamlakatimizda diniylik va dunyoviylik konvergensiya masalasiga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada koʻplab tadqiqotlar, amaliy ishlar amalga oshirilmoqda.

MUHOKAMA.

Ilmiy tafakkur tarixi shuni koʻrsatadiki, din va ilm-fan, oʻzaro tafovutlariga qaramay, ijobiy yoʻllarda oʻzaro taʼsir oʻtkazishlari mumkin. Din va ilm-fan oʻrtasidagi munosabatlar asrlar davomida munozara mavzusi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Din ham, ilm ham ekzistensial savollarga javob beradi va keng maʼnoda voqelikning tavsiflari va tushuntirishlarini taklif qiladi. Biroq bu dunyoqarashlarning haqiqat deb taʼkidlagan narsalariga erishish yoʻllari bir-biridan farq qiladi: din eʼtiqodga asoslangan boʻlsa, fan oqilonalik usulidan foydalanadi.

“Musulmon, yahudiy va nasroniy mutafakkirlarining ongini band etib kelgan va zamonaviy dunyoda ham oʻz dolzarbligini yoʻqotmagan, Abu Nasr Forobiy, Ibn Sino va Ibn Rushd ijodidagi asosiy masala: eʼtiqod va aql oʻrtasidagi munosabatdir. Eʼtiqod aqlning harakatini oldini oladimi yoki cheklaydimi?”[3,32], oʻrta asr Sharq falsafasi boʻyicha tadqiqotlar olib borgan tadqiqotchi Peter Leuprecht “Aql, adolat va qadr-qimmat” nomli asarida Sharq falsafasining va qolaversa Gʻarb falsafasining markaziy masalalaridan biri eʼtiqod va aql uygʻunligi borasida oʻz xulosalarini bera olgan.

Ibn Rushd “Fasl al-maqāl” asarida falsafa va diniy mulohazalar oʻrtasida bir-biriga qarshi boʻlmagan koʻplab misollar mavjudligini taʼkidlab oʻtgan. Aslini olganda, Ibn Rushdning mazkur risolasidagi maqsadlardan biri – falsafa va diniy mulohazalar haqiqatni ifodalashda bir-biriga mos va uygʻun fikrlash usullari sifatida talqin qilishdir. Falsafa (hikma) va oyatlarni (yaʼni diniy bitiklarni) oʻzaro mos boʻlgan va bir-biriga zid boʻlmagan munozarali shakllar sifatida tavsiflash bu dastlabki tavsif hisoblanadi. Biroq, bu Ibn Rushdning bu munosabatlar oʻrtasidagi bogʻliqlikning oʻziga xosligini ifodalamaydi. Masalan, bu umumiy bayonot falsafa yoki diniy bitiklar ierarxik bogʻliqlikning bir shakli sifatida, bu ikki taklifning biri haqiqatni anglash va yolgʻondan saqlanishning eng ishonchli yoʻli sifatida emas, balki Nauman Faiziy aytishicha, “Ibn Rushd fikridagi bu kabi diniy bitiklar va falsafa bir-biriga parallelligini va bir-biriga zid boʻlmagan oʻzaro teng mantiqiy nuqtai-nazar sifatida bir xil hodisalarning natijasidir”[2,34]. Bu xulosalariga asoslangan faylasuf oʻzining “Ikki haqiqat” kontseptsiyasini keltirdi.

Bu nazariya din va falsafaning bir xilligini emas, aksincha, din va falsafaning butunlay boshqa mavzu va usullari borligini taʼkidlaydi. Demak, dinning predmeti Xudo, usuli esa eʼtiqod, falsafaning predmeti esa tabiat, uning usuli esa tajriba (yaʼni, tevarak-atrofni oʻrganish uchun amaliy faoliyat, yaʼni tajribaviy)dir. Din va falsafa mutlaqo boshqa sohalarda shugʻullanadi, bir-biri bilan deyarli hech qanday umumiylik yoʻq va shuning uchun dinning oʻziga xos haqiqatlari va falsafaning oʻziga xos haqiqatlari borligi ajablanarli emas. Bundan tashqari, bu haqiqatlar nafaqat mumkin, balki turli xil va hatto qarama-qarshi boʻlishi kerak. “Ularning bir-biriga mos kelmasligida notoʻgʻri va gʻayrioddiy narsa yoʻq: bu juda tabiiy, normal va tushunarli. Eʼtiqod va aql uygʻunligi tarafdorlari taʼkidlaganlaridek, ular umuman qoʻshilmasliklari kerak shu bilan birga bu haqiqatlar ziddiyatli boʻlishi mumkin emas, chunki ular qarama-qarshi va aslida mos kelmaydigan narsalar haqida gapiradilar”[7,109].

Shuni aytishimiz mumkinki, Andalusiya faylasufi oʻzidan oldingi va oʻzidan keyingi koʻplab oʻrta va yangi davrlarda boʻlganlar kabi dinni asossiz deb

hisoblamagan. Hikmat va shariatning har biri bir-biriga muhtojligini va ularning har birining oʻz xalqi va ishonuvchilari borligini taʼkidlagan. Oxirigacha Ibn Rushdni ular orasidagi yarashuv nuqtai nazarida koʻramiz va bu shuni anglatadiki, bu munosabatda u har bir dindorning dinda tanlaydigan pozitsiyasini va ratsionallik, aqlning qadrini birgalikda olib qarab, oʻrta yoʻlni tanladi.

XIX asrdagina musulmon dunyosida modernizm tarafdorlari boʻlgan ayrim maʼrifatparvarlar tomonidan bu masalaga yana qayta murojaat qilindi. Xususan, Jamoliddin Al-Afgʻoniy (1839-1897) musulmon mamlakatlari taraqqiyotida ratsional ilmlarga murojaat qilish vaqti kelganligini koʻradi. Sababi, Gʻarbning ayrim olimlari tomonidan Sharqdagi qoloqliklarga dinni, ayniqsa, islom dinini sababchi qilish keng tus olmoqda edi. Frantsuz olimi E.Renan ham yevropamarkazchilik tarfdorlari qatorida 1883 yil Parijdagi “Journal de Debates” jurnalining 29 mart oyidagi sonida chop etilgan “Islom va ilm-fan” maqolasida “Arablar tabiati va feʼl-atvori bilan ilm-fanga, falsafaga dushman, ilmiy izlanishga qodir emas, arab ziyolililari oʻzi oʻsib-ulgʻaygan choʻldek taqir”[4,2], degan xulosasini beradi. Maqola nashr etilgan vaqtda A-Afgʻoniy Parijda boʻladi hamda mazkur maqolani oʻqib unga ayni shu “Journal de Debates” jurnalida 18 may oyidagi sonida “Renanga javob” tanqidiy-publitsistik maqolasini yozadi. Bunda Al-Afgʻoniy E.Renanni birinchidan irqchilikda, ikkinchidan islom dini mohiyatini ilm-fan rivojiga zid qoʻyishda ayblaydi hamda islom dinining taʼsirini koʻrsatib oʻtadi: “Bu, shubhasiz, inson uchun eng ogʻir va haqoratli tuzoqlardan biri, lekin bu diniy taʼlim orqali musulmon va nasroniy davlatlari vahshiylikdan chiqib, yanada rivojlangan sivilizatsiyaga oʻtganini inkor etib boʻlmaydi”[1,2]. Lekin, u Zamonaviy Gʻarb intellektini bugungi kunda ustunligini ham tan ola biladi. Buning sababini nasroniylik dinini islom dinidan avvalroq vujudga kelganligida koʻrgan boʻlsa ajab emas.

Aynan mazkur maqolasida din va falsafa tushunchalarini bir qatorga qoʻyadi, biroq bu Al-Afgʻoniyning oʻzi ergashgan, uning qarashlaridan ilhomlangan Ibn Rushdning qarashlari bilan bir xil emas edi. Uning fikricha: “Barcha dinlar bir-biriga

oʻxshash. Din va falsafa oʻrtasida hech qanday murosa yoʻq. Din oʻz eʼtiqodini yuklaydi, falsafa esa insonni qisman yoki toʻliq ozod qiladi. Qanday qilib ular mos keladi deb ayta olasiz? Agar din hukmronlik qilsa, falsafa yoʻq boʻlib ketadi va falsafa oliy xoʻjayin sifatida hukmronlik qilganda buning aksi sodir boʻladi. Insoniyat bor ekan, din va aql oʻrtasidagi, eʼtiqod va erkin tadqiqot oʻrtasidagi kurash davom etadi. Ammo, men natija ilm-fan foydasiga boʻlmasligidan qoʻrqaman, chunki aqlning dalillari odamlarga oshkor etilmagan. Barcha turdagi ilmiy taʼlimotlar faqat bir necha kishi uchun mavjud”[1,2]. U din va ilm sifatidagi bilim oʻrasidagi kurash bugun kelib chiqmasdan, aksincha uzoq tarixga egaligini hisobga olib, u kelajakda ham murosaga kelmasligidan qoʻrqadi. Ilmiy bilim va din oʻrtasidagi kurash kelajakda ham davom etishini bashorat qiladi. Bunda ilm umuminsoniy bilim sifatida dinni toʻgʻrilab, insoniyatni qorongʻulik botqogʻidan olib chiqib, farovonlik yoʻliga olib chiqa olishini koʻp bor takrorlaydi.

Al-Afgʻoniyning din va falsafani yonma-yon qoʻyishining asosiy sababi u Ibn Rushd qarashlari bilan yaqindan tanish boʻlganligidir. Biroq, Al-Afgʻoniy din va falsafani soʻzma-soʻz uygʻunlashtirishga urinmadi. Uning fikridan shuni anglash mumkinki, u din ham falsafa ham mutloq hukmron boʻlishi kerak emas, balki ikkisi ham bir jamiyatda kelishib yashashidan umidvor. Darhaqiqat, Al-Afgʻoniy islohotchi, mamlakatda zamonaviylik tarafdori sifatida oʻz jamiyatidagi kamchiliklarni koʻra bilgan va bunga islomning asl mohiyatidan yiroqlashib ketganligi sabab boʻganini anglab yetgan koʻrinadi. Qurʼonning asl mohiyatidan uzoqlashgan mavjud davlat tizimi ilm-fanga, bilimga, madaniyatga toʻsiq boʻlganligidan qaygʻuradi. Shu sababli, islomda islohotlar qilishni tarafdori boʻladi. Musulmon mamlakatlarida din peshvolari ilm-fan va madaniyat afzalliklarini anglab yetib, oʻz aqlarini isloh qilish kerakligini tushunmagunlaricha, hech qanday islohotlarni oʻtkaza olmasliklarini tushunib yetadi.

Al-Afgʻoniydan deyarli bir asrdan soʻng bilim va imonning gnoseologik jihatiga musulmon olamida yana bir murojaat qilinadi. Zamonaviy Eronning yirik ideologlaridan biri Murtazo Mutahhari (1920-1979) “Inson va imon” asarida

quyidagi gnoseologik savollarni oʻrtaga tashlaydi: “Ilm va imon turli xil, bevosita qarama-qarshi narsalarni talab qiladimi? Bilim va imon bizni oʻziga xos tarzda shakllantirishga intiladimi? Bilim va imon turli yoʻnalishlarga olib boradimi? Yoki ilm va imon bir-birini toʻldiradimi: bilim insonning yarmini, imon esa shunga mos ravishda ikkinchisini yaratadimi? Bilim bizga oxir-oqibat nima beradi, imon nima beradi?”[5,157]. Tadqiqotimiz davomida biz imon va ilm oʻrtasidagi munosabatni talqin qilishda Mutahhariy pirovardida qaysi yoʻlni tanlaganligi va u oʻz maqsadiga erishgan yoki erishmaganligini aniqlashga harakat qilamiz.

““Imon” va “bilim” tushunchalari oʻrtasidagi munosabatlar muammosi falsafada eng dolzarb, murakkab va koʻp qirrali masalalardan biridir. Arab-musulmon falsafiy anʼanalari tarixida bu muammo muhim oʻrin tutib, uning rivojlanishiga kuchli turtki berdi. Yosh islom madaniyati doirasida falsafiy tafakkur shakllanishining boshida ham ilm izlash talabi shakllangan edi”[8,37].

Murtazo Mutahhariy eʼtiqod va aql oʻrtasidagi munosabatni tushunishda ikki xil yondashuv mavjudligidan kelib chiqadi. Birinchisi, nasroniylik madaniyatida rivojlangan va eʼtiqod aqlga qarama-qarshi qoʻyilganligidan kelib chiqadi, ikkinchisi, esa ular oʻrtasida hech qanday ziddiyat yoʻq, deb daʼvo qilingan islom madaniyatidir. Albatta, Mutahhariyning oʻzi “islomiy” yondashuv pozitsiyasida turib, unga toʻgʻri yoʻl sifatida tayanib, “nasroniy” yondashuvni tanqid qiladi.

Mutahhariyning bayonotlaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, islom madaniyatida imon ilm rivojiga toʻsqinlik qilmaydi. Va haqiqatan ham shunday. Birinchidan, islom har doim oʻzini faqat haqiqiy va yagona Xudoga eʼtiqod sifatida emas, balki yerdagi hayotda toʻgʻri xulq-atvor va oʻlimdan keyin adolatli mukofot va baxtga erishish yoʻllarini bilish sifatida ham koʻrsatdi. Musulmon tarixnavisligiga koʻra, islom dinining paydo boʻlishi jaholat (johiliya) davri oʻrnini egallagan ilmlar davrining paydo boʻlganini, bu ilm odamlarga yetib boʻlmaydiganligini bildiradi. Ikkinchidan, islom madaniyatining shakllanishi jarayonida din hech qachon siyosatdan, ijtimoiy va davlat boshqaruvi sohasidan ajralgan emas. Uchinchidan,

islomda ijtimoiy institut sifatida faoliyati aqidaparastlikning rivojlanishi bilan bogʻliq boʻlgan cherkov yoʻq.

Mutahhariy eʼtiqod va aqlni inson tabiatining ikki asosi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, inson va hayvon oʻrtasidagi farq moddiy olamdan tashqarida, maʼnaviy intilishlar va mantiqiy xulosalar doirasidadir hamda bu eʼtiqod va aql sohasida boʻladi. U inson va hayvon oʻrtasidagi farqni bir soʻz yoki jumlada aniqlashni maqsad qilib, oʻziga xos taʼrif beradi: “...inson aql va eʼtiqod tufayli oʻziga oʻxshash tirik mavjudotlardan ajralib turadigan hayvondir”[6,13]. Mutahhariy Allohga eʼtiqod va ilmga intilish insonni shaxs qiladi, degan fikrni ilgari suradi. “Ikki haqiqat” nazariyasidan kelib chiqib muhokama qiladigan boʻlsak, u dialektik yondoshadi, yaʼni bu ikki mustaqil sohani oʻzaro bir-biriga qarama-qarshi, lekin biri ikkinchisini mavjudligini taqozo etadigan, bir-birini toʻldiradigan sohalar sifatida talqin etadi:

“Shubhasiz, bilim eʼtiqod oʻrnini bosa olmaydi, chunki u nafaqat maʼrifat va quvvat, balki muhabbat va umid baxsh etadi, intilishlarimizni yangi bosqichga koʻtaradi. Eʼtiqod – bu biz oʻz mohiyatimizni oʻzgartirishimiz mumkin boʻlgan vositadir (javhar, mohiyat). Eʼtiqod bilim oʻrnini bosa olmaydi va tabiatni bizga tushuntira olmaydi, uning qonunlarini ochib bera olmaydi, oʻzimizni koʻrsata olmaydi”[6,27].

Mutahhariy tarix dalillariga asoslanib, ilmni imondan ajratish uning uchun salbiy oqibatlarga olib kelganligini, chunki “ilm undan uzoqlashganda imon toshga aylanib, koʻr aqidaparastlikka aylanadi”[6,28], deb taʼkidlaydi.

“Aql bizga maʼrifat va quvvat beradi, eʼtiqod esa sevgi, umid va iliqlik baxsh etadi; aql vositalarni, eʼtiqod esa maqsadni yaratadi; aql tezlik beradi, eʼtiqod esa yoʻl beradi; aql – bu imkoniyat, eʼtiqod – yaxshi istak. Aql nima borligini koʻrsatadi, eʼtiqod nima qilish kerakligiga ilhom beradi; aql tashqi inqilob, eʼtiqod esa ichki inqilobdir. Bilimning ham, eʼtiqodning ham goʻzalligi bor, lekin bilim aqlning koʻrkidir, eʼtiqod esa qalbning goʻzalligidir, bilim – fikrning, eʼtiqod – hissiyotning goʻzalligi. Ilm ham, eʼtiqod ham insonga xavfsizlik beradi: bilim zohiriy, eʼtiqod esa

botiniydir. Aql kasalliklardan, toshqinlardan, zilzilalar va boʻronlardan, imon esa tashvish, yolgʻizlik, bogʻlanish tuygʻulari va maqsadsiz mavjudlikdan himoya qiladi. Aql insonning dunyoga moslashishiga yordam beradi, imon esa uni oʻzi bilan yarashtiradi”[6,13].

Demak, Mutahhariy Islom dinining muqaddas matnlariga murojaat qilib, insoniyat tafakkuri yutuqlarini ham nazardan chetda qoldirmaydi. Mutahhariy oʻzining strategiyasini imon va ilm oʻrtasidagi munosabat muammosini tahlil qilish jarayonida koʻrsatadi. U bu tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi deb talqin qilmaydi, islom taʼlimoti qoidalarini, islom sivilizatsiyasi tarixini va oʻzining imon va bilimni inson tabiatining asoslari sifatida talqinini dalil sifatida ishlatadi. Mutahhariy Qurdobalik Ibn Rushd qarashlari, uning “Ikki haqiqat” kontseptsiyasi bilan qanchalik tanish yoki tanish emasligi bizga hozircha nomaʼlum, biroq mazkur masala boʻyicha qarashlarida oʻxshash jihatlari juda koʻp.

XULOSA.

Falsafa va din umumiy til va uslubda boʻlmashliklariga qaramay har doim ikkisi oʻzaro bogʻliq holda yashab kelgan. Doimo oʻzaro bir-biriga tayangan. Bugungi kunda ham zamonaviy falsafadagi fanlararo metodologiyaga tayanib ularni muvofiqlashtirish mumkin. Biroq hanuzgacha bu ikki soha oʻrtasida tafovutlar mavjud. Chunki ilohiyotshunoslar, faylasuflar va olimlarning fikrlari hozirgi kunda ham turlicha, yakdil emas. Shunga qaramay, falsafa va diniy uygʻunlashtirish boʻyicha yangi saʼy-harakatlarni amalga oshirish bir tomondan ilmiy turgʻunlikni oldini olishga, boshqa tomondan hurofotga va turli xil aqidalarni cheklashga yoʻl qoʻymaslik uchun foydali boʻlishi mumkin, deb oʻylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Afghani S.D. Answer to Renan // Journal de Debates. – Paris, May 18, 1883.
2. Nauman Faizi. Averroes on the Relationship between Philosophy and Scripture: A Conditional Hierarchy// The Journal of Scriptural Reasoning. Volume: 15. Issue:1. 2016/3.
3. Peter Leuprecht. Reason, Justice, and Dignity. Brill/Nijhoff, 2012.
4. Renan E. Islam and Science//Journal de Debates. – Paris, March 29, 1883.

5. Корнеева Т.Г. Концепция “Исламского государства” имама Хомейни// Ислам в современном мире. – Москва, 2017. – № 2.
6. Мутаххари М. Инсан ва иман [Инсон ва имон] // Мутаххари М. Мукаддамаха-и бар джаханбини-и ислами [Введение в исламское мировоззрение]. Т. 1. – Техрон, 1993.
7. Роузентал Ф. Торжество знания. Концепция знания в средневековом исламе / Пер. с англ. С.А. Хомутова. М.: Наука, 1978.
8. Федорова Ю.Е. Проблема соотношения веры и знания в философии Муртазы Мутаххари// Философский журнал. – Москва, 2018. – № 4.